



UDK:316.346.32-053.9

Halima JURAYEVA,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: halimajuraeva614@gmail.com

Farangiz ABDULLAYEVA,

Magistranti O'zbekiston Milliy universiteti

Sot.f.d., PhD, K.Kayumov taqrizi asosida

DEMOGRAPHIC, SOCIOLOGICAL, AND SOCIAL DIMENSIONS OF THE CONCEPT OF OLD AGE

Annotation

This article analyzes the demographic, sociological, and social aspects of the concept of old age based on scientific approaches. In demographic processes, increasing life expectancy and the growing proportion of the elderly population significantly influence societal development. From a sociological perspective, old age is characterized by changes in an individual's social status and roles. The completion of professional activity and the transition to retirement are important factors affecting the social activity of older adults. In the social dimension, old age is examined in relation to systems of social protection, healthcare, and social support. It is emphasized that the quality of life of older people is closely linked to their psychological well-being and level of social adaptation. Old age is interpreted as a complex social phenomenon. The findings of the study are of practical importance for social work and social gerontology.

Key words: Old age, demography, sociology, social protection, social gerontology.

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ, СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПОНЯТИЯ СТАРОСТИ

Аннотация

В статье на основе научных подходов анализируется демографическое, социологическое и социальное содержание понятия старости. В демографических процессах увеличение продолжительности жизни и рост доли пожилого населения оказывают существенное влияние на развитие общества. С социологической точки зрения старость характеризуется изменением социального статуса и ролей личности. Завершение трудовой деятельности и переход на пенсионный период являются важными факторами, влияющими на социальную активность пожилых людей. В социальном аспекте старость рассматривается в связи с системой социальной защиты, медицинского обслуживания и социальной поддержки. Подчеркивается, что качество жизни пожилых людей тесно связано с их психологическим состоянием и уровнем социальной адаптации. Старость интерпретируется как сложное социальное явление. Результаты исследования имеют практическое значение для социальной работы и социальной геронтологии.

Ключевые слова: Старость, демография, социология, социальная защита, социальная геронтология.

KEKSALIK TUSHUNCHASINING DEMOGRAFIK, SOTSIOLOGIK VA IJTIMOY MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada keksalik tushunchasining demografik, sotsiologik va ijtimoiy mazmuni ilmiy yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Demografik jarayonlarda umr davomiyligining ortishi va keksalar ulushining ko'payishi jamiyat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sotsiologik jihatdan keksalik shaxsning ijtimoiy maqomi va rollarining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Mehnat faoliyatining yakunlanishi va pensiya davriga o'tish keksalarning ijtimoiy faolligiga ta'sir etuvchi muhim omillardandir. Ijtimoiy yondashuvda keksalik ijtimoiy himoya, tibbiy xizmatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Keksalarning hayot sifati ularning psixologik holati va ijtimoiy moslashuv darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Maqolada keksalik murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy ish va gerontologiya sohalari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'z: Keksalik, demografiya, sotsiologiya, ijtimoiy himoya, ijtimoiy gerontologiya.

Keksalik inson hayotining tabiiy bosqichi bo'lib, u biologik qarish jarayonlari, psixologik holatdagi o'zgarishlar hamda ijtimoiy maqom va rollarning almashinuvi bilan tavsiflanadi. Ilmiy manbalarda keksalik ko'pincha 60 yoki 65 yoshdan keyingi davr sifatida belgilanadi, bu yosh chegarasi xalqaro demografik va tibbiy tasniflarda keng qo'llaniladi [4],[5]. Keksalik davri ishlab chiqarishda faol ishtirok etishdan uzoqlashish, nafaqaga chiqish bilan ijtimoiy pozitsiyaning o'zgarishi taraqqiyotning ijtimoiy vaziyatidagi muhim o'zgarishlardir. Keksalarga nisbatan ijtimoiy vaziyatning noaniqligi ular hayotining ijtimoiy vaziyatini to'liq deb bo'lmaydi. Keksalik davrida inson quyidagi savolni hal qiladi: eski ijtimoiy aloqalarini saqlab qolish hamda yangi ijtimoiy aloqalarni o'rnatish yoki yaqinlarining qiziqishlari bo'yicha

ularga qo'shilish yoki o'z muammolarini hal qilish uchun individual hayotga kirish. Bu tanlov u yoki bu moslashuv strategiyasini — o'zini shaxs sifatida yoki individ sifatida saqlab qolishni belgilaydi. Ana shu tanlovga, moslashuvning strategiyasiga bog'liq ravishda yetakchi faoliyat o'zini shaxs sifatida saqlab qolishga yoki individ sifatida saqlab qolishga yo'naltirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida aholining qarishi jarayoni dolzarb muammo sifatida ko'zga tashlanmoqda, bu esa keksalar tushunchasining demografik, sotsiologik va ijtimoiy mazmunini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Tadqiqot muammosi shundan iboratki, "keksalar" atamasi nafaqat yosh chegarasi (65+yosh) bilan cheklanib qolmaydi, balki madaniy va ijtimoiy kontekstda o'zgarib boradi — an'anaviy oilaviy

tuzumda hurmatli maslahatchi bo'lgan keksa avlod urbanizatsiya va iqtisodiy o'zgarishlar tufayli izolyatsiya xavfiga duch kelmoqda [1]. Ushbu maqola mavzuning dolzarbligini ta'kidlaydi: 2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston aholisining 65 va undan yuqori yoshdagilar ulushi taxminan 6% ni tashkil etadi (37,1 million aholining 2,2 millioniga yaqini), bu esa ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash zaruratini keltirib chiqarmoqda [2]. Tadqiqot metodologiyasi ikkilamchi ma'lumotlar tahliliga asoslanib, demografik prognozlar, sotsiologik stereotiplar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarini qiyosiy o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, demografik o'zgarishlar ijtimoiy ishda yangi yondashuvlarni talab qiladi – masalan, faol qarilik dasturlari va oilaviy himoya mexanizmlarini kuchaytirish orqali keksa avlodning jamiyatdagi rolini saqlab qolish mumkin [3].

E.F.Molevich shunday fikr bildiradi: “Qarilik tushunchasiga yagona baho berish mumkin emas. Amalda biz bir-biridan sifat jihatidan tubdan farq qiluvchi ikki mutlaq alohida guruh bilan ish olib bormoqdamiz” [9]. Muallif 65–75 yoshdagi guruhni ajratib ko'rsatadi, bu guruh moddiy ta'minot qobiliyatining qisman yoki ma'lum darajada yo'qolishi bilan tavsiflanadi, biroq o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qobiliyati deyarli to'liq saqlanib qoladi. 75 yoshdan yuqori bo'lgan yosh guruhi esa mehnat qobiliyatining to'liq yo'qolishi bilan xarakterlanadi. Ushbu guruhga mansub shaxslar to'liq ta'minotga muhtoj bo'lib, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qobiliyatining ko'pchilik hollarda, hatto butunlay yo'qolishi bilan ajralib turadi.

E.Eriksonning fikriga ko'ra, inson keksalik yoshiga kelib shaxsiy rivojlanishning sakkizinchi bosqichiga yetadi, bu bosqich o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlarga ega [16]. Ijobiy jihati, integrativlikda namoyon bo'ladi. Integrativlik deganda inson rivojlanishining ushbu davri tobora kuchayib borayotgan emotsional yaxlitlik bilan ajralib turishi tushuniladi. Bu esa otionalarga nisbatan yangi va mutlaq boshqacha muhabbatning namoyon bo'lishini, ularni asl holicha qabul qilishni, hayot uchun shaxsiy mas'uliyatni anglashni anglatadi. Integrativlikka ega bo'lgan shaxs har qanday jismoniy va iqtisodiy tahdid sharoitida ham o'z hayot tarzini himoya qila oladi, shu bilan birga boshqalarning hayot tarzini qabul qiladi va uni tanqid qilmaydi.

Mazkur bosqich salbiy jihatlar bilan ham tavsiflanadi, ular asab tizimi buzilishlari yoki to'liq umidsizlik hissining paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Inson hayotining ushbu davrida, integratsiyaga olib boruvchi boshqa yo'llarni sinab ko'rish imkoniyati cheklanganligi, umidsizlik holatining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu holat jirkanish hissining namoyon bo'lishi, mizantropiya yoki ayrim ijtimoiy institutlarga yoxud alohida shaxslarga nisbatan mensimaslik va nafrat aralash norozilik orqali niqoblanadi. Keksalik davrida shaxsiyatda o'zgarishlar yuz beradi va u kamdan-kam hollarda bir insonda uchraydigan turli xil sifatlar majmuasi bilan to'yingadi. Shu sababli keksalikning ijtimoiy-psixologik turlarini turli tasniflar asosida ko'rib chiqish zarurati mavjud. Zamonaviy jamiyatda, ayniqsa o'tish davri jamiyatlarida (masalan, postsovet Rossiya misolida), qariyalar statusi keskin o'zgarishlarga duch keladi. YE.F.Molevichning 2001 yilda Samarada o'tkazilgan “Deti i stariki kak gruppi riska: missiya sotsialnoy raboti v obshestvax perexodnogo tipa” xalqaro konferensiyasi materiallarida chop etilgan “Dinamika statusa starikov v sovremennom obshestve” maqolasida bu masala batafsil tahlil qilingan. Qariyalik tushunchasining bir xilligi yo'qligi: Molevich qayd etadiki: “Nikakoy yedinoy otsenki ponyatiya starosti net. Na dele mi imeyem delo s dvumya sovershenno raznimi gruppami, kachestvenno otlichayushimisya drug ot druga”. YA'ni, qariyalarni bir xil guruh deb hisoblash mumkin emas — ular faol va sog'lom

qariyalar hamda zaif, yordamga muhtoj qariyalarga bo'linadi. Statusning pasayishi va marginallashuvi: pensiyaga chiqish bilan qariyalarning ijtimoiy-iqtisodiy o'rni keskin pasayadi. Ular ko'pincha jamiyat marginasiga aylanib qoladi, chunki avvalgi kasbiy va ijtimoiy rollari yo'qoladi. Bu o'tish davri jamiyatlarida yaqqol kuzatiladi. Statusga ta'sir etuvchi omillar: Qariyalikdagi ijtimoiy status pensiyaga chiqishdan oldingi holatga bog'liq: ta'lim darajasi, oilaviy ahvol, daromad miqdori, yashash joyi (shahar yoki qishloq), kasbiy o'rin va prestij. Bu omillar qariyalikda faollikni belgilaydi. Qariyalar — xavf guruhi: Bolalar bilan birga, qariyalar o'tish davri jamiyatlarida xavf guruhi hisoblanadi. Ular ijtimoiy himoya, davlat va jamiyat yordamiga muhtoj. YE.F.Molevich buni ijtimoiy ish missiyasi sifatida ta'kidlaydi. Ijtimoiy faollikni saqlash zarurati: Jamiyat qariyalar statusini imkon qadar uzoq saqlashga harakat qilishi kerak. Bu uchun profilaktika choralari, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish va faol hayot tarzini qo'llab-quvvatlash lozim [16]. I.S.Kon keksalik tipologiyasini taqdim etgan bo'lib, uning asosida keksalik davrining qanday faollik bilan to'ldirilganligiga bog'liqlik yotadi. Ushbu tipologiyada keksalikning ijobiy (farovon) va salbiy turlari ajratib ko'rsatiladi [15].

Ijobiy (farovon) keksalik turlari quyidagi to'rt tipni o'z ichiga oladi:

Birinci tip — faol, ijodiy keksalik bo'lib, bunda inson nafaqaga chiqib, kasbiy faoliyatini to'xtatadi, biroq jamoat hayotida ishtirok etishda davom etadi va shu sababli o'zini jamiyatdan chetda qolgan yoki foydasiz deb his qilmaydi.

Ikkinchi tip — bu yuqori darajadagi ijtimoiy va psixologik moslashuvga ega bo'lgan shaxslar bo'lib, ularning energiyasi asosan o'z hayotini tartibga solishga yo'naltiriladi, ya'ni moddiy farovonlikka erishish, dam olish, o'zini rivojlantirish va ilgari vaqt yetishmagan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga qaratiladi.

Uchinchi tip — asosan ayollarga xos bo'lib, ular o'z kuch va imkoniyatlarini oilada yangi yo'nalishda namoyon etadilar. Uy xo'jaligi ishlari cheksiz bo'lib, u zerikish yoki tushkunlikka vaqt qoldirmaydi. Biroq ushbu tip vakillarining hayotdan qoniqish darajasi odatda birinchi ikki tipga nisbatan pastroq bo'ladi.

To'rtinchi tip — ushbu tip vakillari hayot mazmunini o'z sog'lig'ini mustahkamlashda ko'radilar. Bu nafaqat turli shakldagi faollikka olib keladi, balki ma'lum darajada ma'naviy qoniqish ham beradi. Shu bilan birga, bu tipda mavjud yoki mavjud bo'lmagan kasalliklarni bo'rttirib ko'rsatish hamda yuqori darajadagi xavotirga moyillik tez-tez kuzatiladi.

Salbiy keksalik turlariga quyidagi vakillar kiradi:

Agressiv, doimiy noliydigan keksalar. Ushbu tipdagi odamlar atrofda dunyodan keskin noroziligi, o'zidan boshqa barchani tanqid qilishi, atrofda qilargalarga o'rgatuvchi va go'yoki “terrorizatsiya qiluvchi” munosabati hamda ko'plab da'volari bilan ajralib turadi. O'zidan ko'ngli qolgan, yolg'iz va g'amgin muvaffaqiyatsizlar. Ushbu tipdagi keksa insonlar haqiqiy yoki xayoliy imkoniyatlarni boy berganlik uchun doimo o'zini aybdor his qiladi. Ular hayotdagi xatolar haqidagi salbiy xotiralarni yoddan chiqarishga kuch topa olmaydi, bu esa ularni chuqur baxtsiz holatga olib keladi.

Biologik nuqtayi nazardan keksalik organizmning funksional imkoniyatlari pasayishi, modda almashinuvi jarayonlarining sekinlashuvi va hujayralarning yangilanish qobiliyati kamayishi bilan ifodalanadi. Tadqiqotchilar qarish jarayonini kasallik emas, balki inson organizmining tabiiy rivojlanish bosqichi sifatida baholaydilar. Hooyman va Kiyak biologik keksalikni organizm tizimlarining bosqichma-bosqich funksional pasayishi bilan tavsiflab, ushbu jarayonda hujayra yangilanishining sekinlashuvi, immun tizimi zaiflashuvi,

mushak va suyak massasining kamayishi hamda yurak-qon tomir tizimidagi o'zgarishlar muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Mualliflarning fikricha, biologik keksalik tabiiy jarayon bo'lib, uning oqibatlarini ijtimoiy faollik va sog'lom turmush tarzi orqali qisman kompensatsiya qilinishi mumkin. Ular biologik o'zgarishlarning salbiy ta'siri ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzi va faol hayot orqali sekinlashtirilishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi [6].

Psixologik jihatdan keksalik davrida shaxsning hayotiy tajribasi ortadi, qadriyatlar tizimi barqarorlashadi va hayotga nisbatan mulohazakor yondashuv kuchayadi. Shu bilan birga, ayrim kognitiv funksiyalar, xususan, tezkor xotira va diqqat hajmida pasayish kuzatilishi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [7], [15]. Biroq zamonaviy psixogerontologiya tadqiqotlari keksalikda emotsional barqarorlik va moslashuvchanlikning saqlanib qolishini ham tasdiqlaydi [6]. E. G'oziyev keksalik davrini shaxs rivojlanishining murakkab va mas'uliyatli bosqichi sifatida talqin qilib, ushbu davrda inson hayotiy tajribasining ortishi bilan bir qatorda psixik jarayonlarning sekinlashuvi va ijtimoiy moslashuv masalalari dolzarb ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, keksalik davridagi psixologik holat asosan shaxsning ijtimoiy faolligi va yaqin muhit tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash darajasiga bog'liq. Psixologik yosh sifatida kechki kamolotga yetish, qarilik — bu insonning jamiyatdagi va hayot sikli tizimida o'zining o'ziga xos rolini o'ynaydigan pozitsiyalarining o'zgarishini o'z ichiga qamrab oladigan hayotning yakuniy davridir. Qarilik murakkab bioijtimoiy psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Biologik fenomen (hodisa) sifatida qarilik organizm zaifligining ortishi, o'lim ehtimolining oshishi bilan bog'liq [8], [13].

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining "Active Ageing: A Policy Framework" hujjatida keksalik demografiyasi XXI asrning eng muhim global demografik jarayonlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Mazkur hujjatda ta'kidlanishicha, aholi qarishi jarayoni asosan tug'ilish darajasining pasayishi va umr ko'rish davomiyligining uzayishi bilan bog'liq bo'lib, natijada 60 yosh va undan katta aholi ulushi dunyo miqyosida barqaror oshib bormoqda [4]. WHO ma'lumotlariga ko'ra, keksalar sonining ortishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, mehnat resurslari tarkibining o'zgarishi, demografik yuklamaning oshishi hamda

sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlariga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi aholi qarishining asosiy oqibatlarini sifatida qayd etiladi [4], [11]. Shu bilan birga, hujjatda keksalikni faqat qaramlik va mehnatga layoqatsizlik davri sifatida baholash noto'g'ri ekanini ta'kidlanib, keksalar jamiyat taraqqiyotida muhim inson kapitali hisoblanishi ko'rsatib o'tiladi.

Demografik jarayonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi qarishi nisbatan qisqa vaqt ichida sodir bo'lmoqda. Bu holat mazkur mamlakatlarda ijtimoiy institutlar va demografik siyosatni keksalik muammolariga moslashtirish zarurati kuchaytiradi [4]. Shu munosabat bilan WHO faol qarish konsepsiyasini ilgari surib, keksalar salomatligini saqlash, ularning ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash va xavfsiz muhit yaratish orqali demografik qarishning salbiy oqibatlarini yumshatish mumkinligini asoslab beradi [4],[10]. Mazkur maqolada keksalik tushunchasi demografik, sotsiologik va ijtimoiy yondashuvlar asosida kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, keksalik faqat biologik yosh bilan belgilanadigan holat bo'lib qolmay, balki aholining qarishi jarayonlari, shaxsning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Demografik jihatdan keksalik tug'ilish darajasining pasayishi va umr ko'rish davomiyligining uzayishi natijasida yuzaga kelayotgan global jarayon bo'lib, u jamiyatning yosh tarkibi va demografik yuklama ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologik yondashuv esa keksalikni shaxsning ijtimoiy rollari, maqomi va avlodlararo munosabatlar kontekstida talqin etib, keksalarni jamiyat hayotidan chetlashtirish emas, balki ularning ijtimoiy faolligini saqlab qolish muhimligini asoslaydi. Ijtimoiy yondashuv doirasida esa keksalik davrida shaxsning farovonligi, ijtimoiy himoyasi va hayot sifati masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, keksalikni jamiyat rivojiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida emas, balki ijtimoiy tajriba, bilim va madaniy meros manbai sifatida baholash zarur. Keksalar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish hamda faol qarish siyosatini rivojlantirish demografik qarish sharoitida barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. World Report on Ageing and Health. Geneva: WHO, 2015 (2021 update).
2. United Nations Population Fund (UNFPA). World Population Dashboard - Uzbekistan. New York: UNFPA, 2025. <https://www.unfpa.org/data/world-population/UZ> (2025 yil uchun 65+ yoshdagilar ulushi 6%).
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika Agentligi. O'zbekiston Respublikasining demografik holati (2025 yil 1-yanvar holatiga). Toshkent: Stat.uz, 2025. https://stat.uz/img/demografiya-press-reviz-23_01_2025-uzb_p19246.pdf (aholi soni 37 543,2 ming kishi, qarish tendensiyalari).
4. World Health Organization. Active Ageing: A Policy Framework. – Geneva: WHO, 2002.
5. Краснова О.В. Социальная психология старости: Учебное пособие/О.В. Краснова. АГ Лидер – М.: Академия, 2002. – 288 с. Birren J.E., Schaie K.W. Handbook of the Psychology of Aging. – Academic Press, 2011.
6. Hooyman N.R., Kiyak H.A. Social Gerontology: A Multidisciplinary Perspective. – Pearson Education, 2018.
7. Atchley R.C. Social Forces and Aging. – Belmont: Wadsworth Publishing, 2000
8. G'oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent, "O'qituvchi", 1994. – 224 b.
9. Элкин Д.Эрик Эриксон и восемь стадий человеческой жизни(предисловие)/Эриксон ЭрикГ.Детство и обществоСПб.,1996С. 6-22
10. Abidova, Z., & Jurayeva, H. (2024). The interaction between leadership and tolerance in individual initiative. spast Reports, 1(1).
11. Jo'Rayeva, H. A. Q. (2024). Shaxs tashabbuskorligi psixologik tushuncha sifatida. Academic research in educational sciences, 5(Conference NUU 5), 102-106.
12. Jurayeva, H. A. Q. (2023). Psixologiyada shaxs tasabbuskorligining dolzarbligi. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 335-338.
13. Abidova, Z. A., & Jo'Rayeva, H. A. Q. (2022). Shaxs tashabbuskorligida liderlik va motivatsiyaning o'zaro aloqasi. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 698-703.
14. Jo'Rayeva, H. A. Q. (2024). Shaxs tashabbuskorligining jamiyat ravnaqi yo'lidagi o' mi. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 1), 175-177.
15. Кон И. С. Постоянство личности: миф или реальность? / Хрестоматия по психологии / сост. В.В Мироненко; под ред. А. В. Петровского. — М., 1987
16. Молевич Е. Ф. Динамика статуса стариков в современном обществе [J] Дети и старики как группы риска: миссия социальной работы в обществах переходного типа: междунар. конф. — Самара, 2001